

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2-2025
FILOLOGIYA**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.G.Sabirdinov	
O'zbek tarixiy romani: Oybek va Qodiriy	6
G.M.Oripova	
Ayol ijodkorlar she'riyatida daraxt obrazi tasviri.....	9
M.A.Jo'rayeva	
Munavvar Qori Abdurashidxonov ijodida safar janri	13
G.Muhammadjonova	
Hayot haqiqati, tarixiy haqiqat va badiiy idrok.....	17
I.A.Эшонқулов	
Тавсифи мушаххаси тазкираҳои Ҳашмати Бухорой.....	21
B.X.Murtazoyev, F.O.Hafizova	
"Bobotog"essesida peyzaj: flora tasvirida badiiylik.....	28
I.A.Эшонқулов,З.П.Аҳмедҷонова	
Ситоиши хирад ва хирадгустарӣ дар "Шоҳнома"-и Ҳаким Фирдавсӣ	34
D.T.Musayeva	
Elizabet Gaskel ijodiga nazar	39
H.H.Қаюмов	
Муаммои шинохти санъати ташхис дар поэтикаи мумтози форсу тоҷик.....	42
Sh.T.Ibragimov	
"Babur the tiger" romani o'zbekcha tarjimasida metafora ifodasi	47
J.T.Ibragimov	
"Qutadg'u bilig" istioralarining poetik o'ziga xosliklari xususida chuqur mulohaza.....	55
A.A.Akbarov	
Vatanga muhabbatning lirik ifodasi	61

TILSHUNOSLIK

Sh.M.Iskandarova	
Farg'ona davlat universiteti tilshunosligi: kecha va bugun	66
Г.М.Хошимов, М.Г.Хошимов, Н.А.Абдуллаева, Д.Ш.Назарова, Д.А.Ахмедова	
Актуальные проблемы терминологического аппарата и метаязыка исследования пословиц и поговорок.....	71
Z.V.Alimova	
Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonida sifat turkumiga oid forsiy leksemalar xususida	81
A.B.Uralov	
Ayrim kengaygan shakllar taraqqiyoti hamda ularda nomutanosibliklar	86
Z.A.Davlataliyeva	
Ingliz tili darslarida talabalarining o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishning mazmuni, shakli va vositalari.....	90
H.A.Абдуллаева	
Сопоставительное изучение провербем, вербализующих концептуальную оппозицию «ум/глупость» в английском и русском языках	95
H.A.Отахонова	
Проблемы общей теории и классификации лингвокультурам	100
B.B.G'aprov	
Ingliz gazeta sarlavhalarining o'ziga xos xususiyatlari hamda ularda fe'l komponentli kollokatsiyalarning qo'llanilishi.....	106
D.M.Yuldasheva, Z.I.Usmonova	
Siddiq Mo'minning "Buyuk Temur avlodi" nomli she'rida pretsedent nom tahlili.....	112
N.Fidan	
Ellipsis in English text linguistics	115
M.O.Qulmamatova	
Ingliz va o'zbek tillaridagi "boylik/wealth va kambag'allik/poverty" konseptlarining o'xshashlik va farqli jihatlari.....	120
N.X.Boboqulova	
Ingliz va o'zbek tillarida head/bosh somatik komponentli maqollarning konseptual tahlili	124



UO'K: 82-1/-19: 82-14

AYOL IJODKORLAR SHE'RIYATIDA DARAXT OBRAZI TASVIRI

ОБРАЗ ДЕРЕВА В ПОЭЗИИ ЖЕНЩИН-ТВОРЦОВ

THE IMAGE OF A TREE IN THE POETRY OF FEMALE POETS

Oripova Gulnoza Murodilovna 

Farg'ona davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya

Maqolada qadimiy an'anaviy obrazlardan biri daraxt obrazi tasvirida ayol ijodkorlarning individual talqinlari yoritilgan. Tadqiqot jarayonida struktural-poetik, tarixiy-madaniy, psixologik, germeneytik usullari qo'llanildi. Daraxt obrazi Zulfiya, Halima Xudoyberdiyeva, Enaxon Siddiqova kabi shoiralarning she'rlarida o'ziga xos tasvir uslubi va falsafiy-hissiy talqinlarni namoyon etishi tahlil etilgan. Ular she'riyati asosida daraxt obrazi inson obrazi bilan psixologik jihatdan bog'lanib, parallelizm asosida poetik mazmuni ifodalashi tasviri tafsillar bilan ifodalangan. O'zbek shoiralari lirikasida daraxt obrazi tasviri orqali mifologik obrazning yangilangan qirralari namoyon bo'lishi, lirik "men" kechinmalari, ertangi kunga umid, davr muammolarining o'ziga xos talqini ifodasi tadqiq etilgan. Lirik asarlarda tasvirlanayotgan turfa xil hodisalar va narsa-buyumlar shoir talqiniga monand kitobxon ko'z o'ngida suratlanishi, muayyan voqea-hodisa yoki predmetning tasviri asosida muallifning qarashlari bo'y ko'rsatishi davr ijodkorlari she'rlari tahlili asosida tadqiq etilgan.

Abstract

The article highlights the individual interpretations of the tree image—one of the ancient traditional symbols—in the poetry of female poets. Structural-poetic, historical-cultural, psychological, and hermeneutic methods were used during the research. The image of a tree is analyzed in the poems of Zulfiya, Halima Khudoyberdiyeva, and Enaxon Siddikova for its distinctive style and philosophical-emotional meanings. In their works, the image of a tree is psychologically linked to the image of a human being and expresses poetic meaning through parallelism. The renewed dimensions of the mythological image are revealed in Uzbek women's lyrical poetry through the tree motif, along with expressions of the lyrical "I," hope for the future, and unique interpretations of contemporary issues. The article also explores how various phenomena and objects are described in lyrical works in a way that reflects the poet's perspective, bringing the author's views to the foreground through depictions of specific events or items.

Аннотация

В статье описаны индивидуальные интерпретации художницами образа дерева, одного из древних традиционных образов. В процессе исследования использовались структурно-поэтический, историко-культурный, психологический, герменевтический методы. Анализируется образ дерева в стихотворениях таких поэтов, как Зульфия, Халима Худойбердыева, Энахон Сиддикова, поскольку он демонстрирует неповторимый образный стиль и философско-эмоциональные интерпретации. На основе их поэзии образ дерева психологически связан с образом человека, а на основе параллелизма детально выражен образ поэтического содержания. В лирике узбекских поэтов через образ дерева исследуются обновленные аспекты мифологического образа, переживания лирического «Я», надежда на завтрашний день, выражение своеобразной интерпретации проблем времени. Различные события и предметы, изображенные в лирических произведениях, изображаются перед глазами читателя аналогично интерпретации поэта, а взгляды автора показаны на основе изображения конкретного события или предмета.

Kalit so'zlar: o'zbek lirikasi, an'anaviy obraz, daraxt obrazi, tasvir va talqin, parallelizm, poetik mazmun, lirik kechinma

Key words: Uzbek lyrical poetry, traditional image, tree motif, depiction and interpretation, parallelism, poetic content, lyrical experience

Ключевые слова: узбекская лирика, традиционный образ, образ дерева, образ и интерпретация, параллелизм, поэтическое содержание, лирический опыт.

KIRISH

Lirik turga xos jihatlardan biri bu tasvirning hayotiy va haqqoniy tarzda ifodalanishidir. Abdurauf Fitrat "Adabiyot qoidalari" asarida "Adabiyot – fikr, tuyg'ularimizdagi to'liqlarni so'zlar, gaplar yordami bilan tasvir qilib, boshqalarda ham xuddi shu to'liqlarni yaratmoqdir" [1, 63], degan mulohazani bayon etgan. Badiiy asarlarga xos tasviriylik, xususan, she'riyatda tasvirlash san'ati

o'ziga xoslik kasb etadi. "Tasvir – badiiy vositalar yordamida voqelikdagi narsa-hodisalarni o'quvchi (tomoshabin) bevosita va yaxlit holda, ularga xos individual – betakror xususiyatlar bilan birgalikda konkret his eta oladigan tarzda aks ettirish. Garchi mohiyatan tasvir termini tasviriy san'atga xos bo'lsa-da, uni boshqa san'at turlariga nisbatan, xususan, badiiy adabiyotga tatbiqan qo'llash ham o'rinlidir. Badiiy adabiyotda tasvir so'z vositasida amalga oshiriladi, shunga ko'ra, tasviriy san'atdan farqli o'laroq, adabiy asarda tasvirlangan narsa-hodisa "ichki ko'z" bilan ko'riladi: so'z vositasida o'sha narsa-hodisa chizgilari muayyan ketma-ketlikda qayd etiladi va oxir-oqibatda tasavvurda uning tasviri – surati jonlanadi" [2, 319]. Bejizga iste'dodli rus adibi Aleksey Tolstoy "Yozuvchi o'zi tasvirlayotgan hamma predmetlarni qalb ko'zi bilan ko'rib turib asar yozishi kerakligi – qonundir", degan fikrni ilgari surmagan.

Ijodkorlarning ijtimoiy hamda falsafiy qarashlari individuallik kasb etadi. Lirik asarlarda tasvirlanayotgan turfa xil hodisalar va narsa-buyumlar shoir talqiniga monand kitobxon ko'z o'ngida suratlanadi. Faylasuf olim A.M.Slavskayaning izohlashicha, talqin bu muallifning uslubiy pozitsiyasi, kontekst sathida ifodalangan inson va hayot to'g'risidagi o'y-qarashlari, ijtimoiy fikrlashi majmuidir. Ko'rinadiki, har bir kitobxon she'rni mutoala qilish vaqtida shoir talqinlarini tez ilg'aydi. Demak, muayyan voqea-hodisa yoki predmetning tasviri asosida muallifning qarashlari bo'y ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Jahon adabiyotshunosligida she'riyatda badiiy obraz va uning spetsifik xususiyatlari, tasvir va talqin muammolari atroflicha o'rganilgan bo'lib, Arastu, G.V.Gegel, X.O.Gasset, V.Shklovskiy, B.Eyksenbaum, V.Belinskiy, V.Jirmunskiy, M.Baxtin, L.Timofeyev, M.B.Xrapchenko, R.Uyellek, O.Uorren, Y.Lotman, G.N.Pospelov, V.E.Xalizev, A.Kovalev kabi olimlarning tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega.

O'zbek adabiyotshunosligida badiiy obraz va uning talqini masalasi A.Fitrat, I.Sulton, O.Sharafiddinov, U.Normatov, N.Rahimjonov, Y.Solijonov, A.Sabirdinov, D.Quronov, U.Hamdamov, H.Jo'rayev, Q.Yo'ldosheva, N.Mirzayeva, Sh.Ergasheva, Sh.Karamova kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Yaratilgan tadqiqotlarda muammoga turli aspektdan yondashilgan bo'lib, badiiy voqelik tasvirida ijodiy o'zlashtirilgan daraxt an'anaviy obrazining yangicha ruhda qayta jonlantirilishi ayol ijodkorlar she'riyatida to'la tadqiq etilgan.

NATIJALAR

O'zbek she'riyatida an'anaviy poetik obrazlardan biri bo'lgan daraxt obrazi tasvirida ayol ijodkorlarning individual talqinlarini kuzatish mumkin. Ma'lumki, qadim totemistik tasavvurlarda ajdodlarimiz daraxtni o'ziga homiy deb bilgan va ilohiylashtirish orqali turli mifologik obrazlarni yartagan. Keyinchalik esa badiiy ijodda ularni inson obrazi bilan bog'lab tasvirlash keng tus olgan.

Daraxt obrazi shoir Zulfiya she'riyatining ham etakchi poetik obrazlaridan hisoblanadi. Uning "Daraxt" she'ri tavsifiy lirikaning bir turi bo'lgan peyzaj lirikasiga xosdir. She'rda yo'l chekkasida turgan daraxtning shamol zarbidan qulashi tasviri ifodalangan.

Bir daraxt turardi yo'l chekkasida,

Shamol urar edi uni muttasil.

Aavval ko'k, so'ng za'far-xazon tusida,

Ko'rkini yo'qotdi... hamon urar el.[3, 58]

misralarida daraxtning "yo'l chekkasida" detali orqali tasvirlanishi uning yakka, yolg'iz va o'jizligiga ishoradir. Bu poetik fikr she'rning keyingi bandida rivojlantirilib, birinchi misrasidayoq o'quvchi qalbini tiraydi: "Qurg'adi, bukchaydi kurashda tanho". Zulfiyaning "yo'l chetida"gi "tanho" daraxtni obraz sifatida tanlashi yolg'iz ayol qismatini ifodalashdagi poetik maqsadini amalga oshirish uchun xizmat qilgan. Daraxtning ko'k va za'faron tusga kirishi hamda sekin-asta "ko'rkini yo'qotishi" tasvirida ham shoiraning umrning o'tib borishi haqidagi talqinlarini kuzatamiz. E'tiborli jihatu shundaki, Zulfiya ayollik qalbi, ijodkor shaxsi va avtobiografiyasi bilan daraxt timsolida ayol qismatini tasvirlaydi.

She'rdagi shamol obrazining daraxt poetik obrazi bilan parallelizm asosida kurashuvi tasviri hayotiy talqinlarni yuzaga chiqargan. Shamol zarbidan qulagan daraxt poetik lavhasi lirik "men"ni aslo cho'chitmaydi. Zulfiya hayotsevarlik g'oyalarini baralla tarannum etadi:

Bilaman, daraxtday qulasam agar

ADABIYOTSHUNOSLIK

Mening hayot bog'im qolmas huvillab.

Zulfiyaning "Majnuntol" she'rida ajdodlarimizning totemistik tasavvurlari fonidagi daraxt + odam bog'liqligi daraxt mifologik obrazining Zulfiya she'riyatida yangilangan qirralarini ko'ramiz:

Daraxt ham insoniy erdan olar jon,

Inson qachon erdan ketgan uzilib?

Majnuntolda zilol shodlik bir jahon:

Yashaydi tuproqqa sadoqat bo'lib.

Bu satrlarni o'qib, daraxt obrazi tasvirida Erkin Vohidovning insonning o'z vataniga sadoqati "Sadoqat" she'rida nekbini satrlarda talqin etganligi yodimizga keladi.

MUHOKAMA

H.Xudoyberdiyeva ijodida ham etakchi poetik obrazlardan biri bo'lgan daraxt shoiraning bir qancha she'rlarida tasvirlangan. Xususan, uning "Majnuntol", "Bilmagan daraxt", "Kuzgi daraxt", "Daraxtlar sezadi", "Daraxt faryodidan bexabar", "Daraxtlarga aylantirib qo'y" singari lirik she'rlarida shoiraning individual uslubi va falsafiy-hissiy talqinlari kuzatiladi. Shoir "Daraxtlarga aylantirib qo'y" she'rida daraxt obrazi orqali buzg'unchi g'oyalarga aldanib, Vatan bag'ridan chiqib ketayotgan yurt bolalarini asrab qolish haqida qayg'uradi. Lirik qahramon Vatanga poetik murojaat qilar ekan, shu yurt bolalarining ildizi tuproqqa chuqur qorishgan daraxtlarga aylanishini istaydi.

Vatan!

Xomush yuzing o'girma,

Bolalaring buzsa shayton o'y.

Sen ularni ayab o'tirma

Daraxtlarga aylantirib qo'y.[4, 256]

She'rida daraxt obrazi tasvirining keltirilishi "Daraxt bir erda ko'karadi" tarzidagi xalq maqoliga uyg'unlashgan. Bu esa talqinning ta'sirchanligini hamda tuyg'ular shiddatini oshirishga xizmat qilgan.

Shoir Enaxon Siddiqova she'riyatida ham daraxt obrazi tasvirining go'zal namunalarini ko'rish mumkin. Uning "Ey, daraxt" she'rida adolat, birdamlik, kurashuvchanlik g'oyalari muazzam satrlari orqali ifodalangan. Shoir she'rning sarlavhasidayoq daraxtga murojaat qilib, undan hayot sinovlariga bardoshli bo'lib yashashga o'ragatishini so'raydi. E.Siddiqovanning bu poetik murojaatida ham ajdodlarimizning totemistik tasavvurlari fonidagi daraxt + odam bog'liqligining yangilanishlarini daraxt poetik obrazi orqali ko'rish mumkin.

Sen qanday el,

Qandayin millat?

Tomiringda qadimiy g'oya,

Haqsizlikka qasdma-qasd, tik, shaxd,

Kundalarda

Gullashni o'rgat! [5, 15]

Lirik qahramon daraxt tomiridagi qadimiy g'oya – adolatparvarlik g'oyasini tarannum etar ekan, daraxt kabi haqsizlikka tik boqishni istaydi. She'rning keyingi bandlarida "O'xsholmayman bitta novdangga", deya daraxtning har bir novdasida sadoqatni ko'rgan lirik qahramon:

Bu g'ofil,

Bu bedast bandangga

Xiyonatsiz yashashni o'rgat!

deya murojaat qiladi. She'rning yakuniy bandida shoiraning poetik g'oyasi hissiy mushohadalari orqali ifodalanadi:

Silkitmasin

Har shamol, har el,

Tursa bo'ron,

Kelsa dovul, sel.

Saflanib erk uchun

Yakdil el,

Millat bo'lib

Birlashni o'rgat!

XULOSA

O'zbek lirikasida ayol ijodkorlarning ijtimoiy-falsafiy qarashlari individual uslubi bilan bog'liq holda turfa xil talqinlarni namoyon etadi. Lirik janrlardagi daraxt obrazi tasviri inson ruhiy kechinmalari ifodasi bilan birga davr muammolari talqinini ham aks ettiradi. Ayol shoiralar ijodida an'anaviy obraz va timsollarning tasvir ko'lami ortib, shaxs ruhiy qatlamlarida kechayotgan evrilishlar tahlili etakchi xususiyatga ega bo'lmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. Тўртинчи жилд. – Тошкент: Маънавият, 2006. – Б.63.
2. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – Б.319.
3. Зулфия. Тонг билан шом аро. – Тошкент: Шарқ, 2005. – Б.58.
4. Худойбердиева Ҳ. Йўлдадирман. – Тошкент: Шарқ, 2006. – Б.256.
5. Сиддиқова Э. Сўз устидаги дунё. – Тошкент: "Adib", 2014. – Б.15.
6. Сабирдинов А. Ойбекнинг поэтик маҳорати. – Рига: GlobeEdit, 2020. – Б.189.
7. Гей Н.К. Искусство слово. – М.: Наука, 1967. – С.98.
8. Ойбек. Адабиёт тўғрисида. – Тошкент: Фан, 1985. – Б.14.
9. Oripova G. Mustaqillik davri o'zbek lirikasi: janr xususiyatlari va poetikasi: Filol.fan.dokt... diss. – Farg'ona, 2024. – 265 b.